



TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARIDA FARZANDSIZLIK MOTIVI.

Farg‘ona davlat universiteti

1-bosqich magistranti

Shahlo Mamatova

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida yetakchi badiiy-psixologik motivlardan biri bo‘lgan farzandsizlik motivi tahlil qilinadi. Asarda farzandsizlik nafaqat biologik holat, balki insonning ichki iztiroblari, ruhiy bo‘shlig‘i, jamiyat va an‘anaviy qarashlar bilan to‘qnashuvi ramzi sifatida talqin etiladi. Muallif farzandsizlik motivi orqali qahramonlarning ma‘naviy kechinmalari, yolg‘izlik, umidsizlik va taqdirga bo‘lgan munosabatini ochib beradi. Maqolada mazkur motivning syujet rivoji va obrazlar ruhiyatini shakllantirishdagi o‘rni yoritib beriladi.

Kalit so‘z: Tog‘ay Murod, „ Oydinda yurgan odamlar” qissasi, motiv farzandsizlik motivi, qahramon ruhiyati, ichki kechinma, ruhiy iztirob.

KIRISH

Milliy adabiyotimizning XX asr oxirgi choragi rivojida Tog‘ay Murodning munosib o‘rni bor. U salkam o‘ttiz yillik ijodiy faoliyati davomida bir necha hikoya, to‘rt qissa, ikki roman yaratdi, jahon adabiyotidan tarjimalar qildi, adabiy-tanqidiy maqolalar yozdi. Yozuvchi qoldirgan adabiy meros miqdor jihatdan u qadar ko‘p emas. Ammo uning qissa va romanlari o‘ziga xos badiiyati, tili va ifoda tarzi, hech qaysi adibnikiga o‘xshamaydigan murakkab personajlari bilan davr adabiyotida yorqin iz qoldira olgan. Tog‘ay Murod o‘z asarlari orqali milliy ruhning betakror



ifodasini yaratish bilan bir qatorda o‘zbekni o‘ziga tanitdi, o‘zligini anglatdi. „Oydinda yurgan odamlar” „Ot kishnagan oqshom” „Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” „Otamdan qolgan dalalar” „ Yulduzlar mangu yonadi” asarlari orqali adabiyotimizga Surxon vohasining o‘ziga xos nafasini olib kirdi. Yozuvchu bu asarlari orqali sodda, samimiy, mehnatsevar xalqimizni ulug‘ladi, xalqining qora chirkin, achinarli hayotini ko‘z oldida gavdalandirdi, o‘zbek yigitlariga xos bo‘lgan g‘ururlilik, or – nomus, mardlik masalalarini, sof insoniy tuyg‘ular -- mehr, sadoqatni kuyladi.

Tog‘ay Murod o‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, ichki kechinmalari va milliy qadriyatlar uyg‘unligini chuqur va ta’sirchan ifodalagan ijodkorlardan biridir. Uning “Oydinda yurgan odamlar” qissasi inson taqdiri, jamiyat bosimi va ichki iztiroblarni badiiy jihatdan yuksak saviyada aks ettirgan asarlardan sanaladi. Ushbu asarda yetakchi motivlardan biri — farzandsizlik motivi bo‘lib, u nafaqat oilaviy muammo, balki ijtimoiy va ruhiy fojia sifatida talqin etiladi. Asarning bosh qahramonlari Qoplonbek va Oymomo butun umr farzand ilinjida tashab o‘tadi, Hali tug‘ilmagan go‘dakning biri momosi va biri bobosi bo‘lib, farzandlarini, bir – birlarini e‘zozlashadi. Farzandining shirin xayoli bilan yashashadi. Asar qahramonlari hamisha umid bilan yashashadi. “Oydinda yurgan odamlar” asarida farzandsizlik oddiy biologik holat sifatida emas, balki inson hayotidagi eng og‘riqli sinovlardan biri sifatida tasvirlanadi. O‘zbek mentalitetida farzand — oilaning davomchisi, hayot mazmuni va jamiyatdagi mavqening asosiy mezoni hisoblanadi. Shu bois farzandsizlik qahramonlar ruhiyatida chuqur iz qoldiradi, ularni ich-ichidan yemiradi. Lekin shunday bo‘lsa ham, Qoplonbek va Oymomo ko‘ngillaridagi cho‘kib qolgan dardni bir- birlariga bildirmaslikka harakat qilishadi. „ Bari gap Termizda hal bo‘ldi. O‘shanda do‘xtir onamizga bor gapni aytdi. Otamizga aytmish gap... teskarisini aytdi!..Onamiz do‘xtir gapiga ishonmadi. Otamizdan pinhona Denov do‘xtirlariga bordi. O‘zini sinchiklab-sinchiklab qaratdi. Denov do‘xtirlarida Termiz do‘xtirlari aytmish gapni aytdi. Onamiz otamizga bildirmadi. Ayollar



bilan Denovdan baliq yeb keldim, dedi.” Asar qahramonlari bormagan tabib, folchi, doktorlari qolmaydi. Yuqoridagi asardan olingan jumlada Oymomo Denovga ham bir o‘zi borib keladi. Qoplonbek so‘raganda esa ayollar bilan muzqaymoq yegani borganligi aytadi... Uni ham ko‘nglini vayron qilgisi kelmaydi.

Asarda farzandsizlik tufayli insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchi so‘nadi, hayotdan zavq olish hissi yo‘qoladi. Tog‘ay Murod bu holatni ochiq fojia bilan emas, balki sokin, ammo og‘ir ruhiy kechinmalar orqali ko‘rsatadi.

„– Mayli, qorovullik bo‘lsa qorovullik-da. Ombor bo‘ladimi? – dedi brigadir.

- Yoq, dala ber, uka, dala ber.

- Maylingiz, unda, Kamarga borasizmi?

- Yo‘q, bizga Sayrak adirni ber, uka. Ayolimiz bilan ikkovimizga-da. Ayolimiz o‘rniga-da o‘zim turib beraman. Ayolimiz ovqat pishirib berib turadi.

- Maylingiz.

- – Shu, Sayrak adirga bir dil ketdi-da, uka...” Asarda qahramon ruhiy kechinmasi, badiiy psixologiyasi sokin tarzda aks etgan. Asar qahramonlari hech vaqt birovga dardini dasturxon qilmaydi, birovga nolimaydi ham. Yuqoridagi jumlada ham Qoplonbek „ Sayrak adirga dil keldi-da,uka” der ekan, uning asl maqsadi odamlar ko‘zidan uzoq bo‘lish, ular aytayotgan turli mish-mish gaplarni eshitmaslik edi.

Qahramonning sukuti, ichki monologlari va ramziy tasvirlar orqali farzandsizlikning inson qalbiga solgan jarohatlari ochiladi. „G‘ojir hovli uzra davra oldi. Favqulodda yerga yulduzday uchdi. Qanotlarini yoyib keldi. Bir jo‘jani panjalari orasiga oldi. Tag‘in o‘qday yuqoriladi. Oymomo ana shunda nima gapligini tushundi. Joyidan sapchib turdi. Qo‘l siltab zug‘um qildi:

- Kish deyman-a, kish, qiyomat qotgur! – dedi.



G'ojir terak bo'yi ko'tarildi. Panjalarida bormish jo'ja chiyillab-chiyillab qo'ya berdi. Makiyon falakka sapchib qoqoqladi, jo'jasiga talpinib qoqoqladi. Qoqoqladi-qoqoqladi, shaxt bilan tomlab uchdi. Chiy-chiy-chiy etmish jo'jasiga talpindi. Tomdan g'o'zapoya g'aramiga uchdi. Chiy-chiy-chiy, deya olislamish jo'jasiga talpindi." Ushbu ramziy tasvir orqali yozuvchi qahramonlarinig dardi nechog'lik chuqurligini, ularning qalbidagi hasrat, alamni ko'rsatib bermoqchi bo'lgan. Hatto hayvonda ham bola, hatto hayvon ham bolam deydi... Lekin Olloh ularni boladan qisdi... Oymomo shu vaziyatda,, bola, bola-da, bo'lmasa, o'n beshta bolasi kamlik qiladimi" deydi. Oymomoning bu gapidan uning qalb kechinmalarini anglab olish qiyin emas. Qoplonbek esa unga javoban „, Xudo, shuni-da ko'p ko'rdi" deydi. Qay ma'noda Qoplonbek o'z hayotlarini gapirganga o'xshaydi bu jumlada...

Har bir inson hayotda o'zidan bir zurriyod qoldirishni istaydi. O'lganidan keyin tobutini ko'taradigan o'g'li, haqqiga duo qiladigan qizi bo'lishi xohlaydi. Qoplonbek Xizrni ko'rganda „, menga bir farzand bering, hazrati Xizr bovajonim! Dunyodan qo'li ochiq ketmayin, hazrati Xizr bovajonim! Mayli, bizga bittagina Xushvaqt bo'lsa-da bo'ladi!" deya shunday zorlanadi.

Bir kuni momomiz sovliqni sog'moqchi bo'lib, bobomizga qo'zini ushlab turishni aytadi. Bobomiz „asli bu ish yosh bolalarning, Xushvaqtning ishi" deb ko'nglidan o'tkizadi. „Onamiz joyidan turdi.

– Qo'zini qo'ybersa-da bo'ladi, – dedi.

Otamiz qo'zini qo'yib yubordi. Katak oldida to'shalmish gilamga keldi. Bolishga yuztuban tashladi. Bolish ho'l bo'ldi..." Ushbu jumlada yozuvchi qahramon sukutini juda ta'sirchan uslubda tasvirlagan.

Farzandsizlik motivi asarda jamiyat bosimi bilan uzviy bog'liq holda beriladi. Qishloq muhiti, odamlarning qarashlari, mish-mishlar va kinoyali munosabatlar farzandsiz insonlarning dardini yanada chuqurlashtiradi. Ular nafaqat



o‘z dardi bilan, balki atrofdagilarning bepisand qarashlari bilan ham kurashishga majbur bo‘ladilar. Asardagi Qimmatmomo bila turib ularning yarasiga tuz sepadi. Oymomoning qanchalik xafa bo‘lganini ko‘rib, u shunchalik xursand bo‘ladi. Afsuski, Qimmatmomoga o‘xshaganlar hamma zamonlarda ham topiladi. Asar qahramonlari mana shunday odamlarning ta’na-malomatlariga chidashi, el orasida o‘ksik va tili qisiq bo‘lib yurishi, shunday bo‘lsa-da katta umid bilan yashashi kitobxonni o‘yga toldiradi. Brigadir esa ularni butun boshli jamoat oldida yoshlarini hurmat qilmay izza qilib „ Nima uyingizda yig‘lab qoladigan bolangiz bormidi, qaytangga bolalilar o‘z vaqtida kelyapti. Ana Xumor, Sanamlar. Qo‘sha- qo‘sha bolalari bor” deb ularning dardiga dard qo‘shadi. Tog‘ay Murod bu orqali jamiyatning ayrim hollarda shafqatsiz va loqayd qiyofasini fosh etadi. Farzandsiz inson jamiyat ko‘zida go‘yoki “kam”, “nuqsonli” sifatida qaraladi. Bu esa qahramonning ichki yolg‘izligini kuchaytiradi va uni “oydinda yurgan odam”ga — ya’ni jamiyat orasida bo‘lsa-da, ruhiy jihatdan yolg‘iz shaxsga aylantiradi.

Asar nomining o‘zi ham ramziy ma’noga ega. “Oydinda yurgan odamlar” — tashqi tomondan sokin, osoyishta ko‘ringan, ammo ichida ulkan dardni yashirgan insonlardir. Farzandsizlik motivi ushbu ramzni yanada chuqurlashtiradi. Oydin tun — sokinlik va sukunat timsoli bo‘lsa, qahramonlarning yuragi iztirob va savollarga to‘la.

Muallif farzandsizlikni insonni sindiruvchi emas, balki uni sinovdan o‘tkazuvchi hayotiy hodisa sifatida ko‘rsatadi. Bu motiv orqali sabr, taqdirga munosabat va insoniylik masalalari ilgari suriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida farzandsizlik motivi chuqur falsafiy va ijtimoiy mazmunga ega. U faqat bir oilaning muammosi emas, balki butun jamiyatning ma’naviy qiyofasini ochib beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Muallif ushbu motiv orqali inson qalbining



eng nozik jihatlarini, uning yolg'izligi va sabr-bardoshini ta'sirchan tarzda yoritib beradi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Tog'ay Murod „, Oydinda yurgan odamlar” qissasi. Mutolaa Toshkent 2024.
2. Mamaziyoyeva Ozoda. “Oydinda yurgan odamlar” asarida qo'llangan etnografik birliklar. Maqola.
3. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar. 1- jild. Qissalar. Toshkent: Sharq. 2008.